

“ABU RAYHON BERUNIY” ROMANIDA MUALLIF NUTQIDAGI USLUBIY O‘ZIGA XOSLIKNI TADQIQ ETISH MASALASI

Rahmatilla Eshpo‘latovich NORBEKOV

tayanch doktorant

Chirchiq davlat pedagogika instituti

Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada “Abu Rayhon Beruniy” romanida muallif nutqidagi uslubiy o‘ziga xoslikni tadqiq etish masalasi o‘rganilgan. Yozuvchi mushodalaridagi uslubning eng nozik qirralari aks etishi, romandagi falsafiylik, psixologizm, tahlil va talqin kabi jihatlar tahlil qilingan. Asar muallifi bilan bog‘liq jarayon, tarixiy prinsipga qat’iy amal qilish tamoyili, uslubining asosiy xususiyati, obrazlarga munosabat va yondashuvning individualligiga ahamiyat qaratilgan.

Tayanch so‘zlar: tamoyil, davr va ijodkor, tarixiylik prinsipi, hayotiy material, muallif uslubi, badiiy psixologizm.

ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОЙ ОСОБЕННОСТИ АВТОРСКОЙ РЕЧИ В РОМАНЕ «АБУ РАЙХАН БЕРУНИ»

Рахматилла Эшпулатович НОРБЕКОВ

Базовый докторант

Чирчикский государственный педагогический институт

Чирчик, Узбекистан

Аннотация

В данной статье изучен вопрос исследования стилистической особенности авторской речи в романе “Абу Райхан Беруни”. Были проанализированы такие аспекты, как отражение тончайших граней стиля в творчестве писателя, философия, психологизм, анализ и интерпретация в романе. Процесс, связанный с автором произведения, принцип строгого следования историческому принципу, главная особенность его стиля, акцент на индивидуальности отношения и подхода к образам.

Ключевые слова: Принцип, эпоха и создатель, принцип историзма, жизненный материал, авторский стиль, художественный психологизм.

Aslida ijodkor uslubida u yashagan davr ruhi aks etadi. Davr va ijodkor bir-biridan ayro tusholmagani kabi uslub ham har davrga xos xususiyatlarni o‘zida yorqin tarzda aks ettiradi. Boisi “Uslub madaniyatning o‘ziga xos xarakteri, davrning muhim belgisi, u yoki bu davrni aniq namoyon etuvchi hissiyotning metafizik shakli, “ma’naviyatning atmosferasi”dir. Uslub san’at, shaxs yoki biror predmet yoki material tanlamaydi. U tabiiy jarayonning bir ko‘rinishi bo‘lgan metafizik sitixiya sifatida o‘zining yo‘lidagi barcha jarayonni bo‘ysunduradi,

davrni ifoda etuvchi jarayonga aylanadi” [4;663]. Romanda ham aynan shunday. Garchand asar bundan bir necha asr oldingi davr va unga xos xususiyatlarni aks ettirsada, unda bugungi kunga tegishli bo‘lgan mulohazalar, qarashlar, muammolar ham o‘z aksini topadi. Tabiiyki, bu jarayon asarda muallif mulohazlarining aks etishi bilan bog‘liq holatdir. Yozuvchi mushodalarida ham uslubning eng nozik qirralari aks etadi: falsafiylik, psixologizm, tahlil va talqin kabi jihatlarda uslubning eng muhim qirralari aks etadi. Bu holat tabiiyki, asar muallifi bilan bog‘liq jarayondir.

Yozuvchi Isajon Sulton roman yaratish asnosida tarixiylik prinsipiga qat’iy amal qiladi. Bu holat uslubda o‘ziga xos tarzda aks etadi. Muallif uslubning an’anaviy yo‘nalishlarini chetlab o‘tmagani holda, ayni romangagina xos bo‘lgan uslubiy individuallikni namoyish eta oladi. U tarixiy qahramonlar tilini murakkablashtirish, ma’lum soha vakillari tiliga yaqinlashtirish yo‘lidan chekingani holda, ayni adabiy asarga xos bo‘lgan ravon, sodda, har bir qahramon ichki va tashqi olamiga moslashgan badiiy til xususiyatini namoyon qiladi. Bu uslubiy o‘ziga xoslik orqali boshqa tarixiy romanlar yozilish yo‘lini, uslubini takrorlamaydi. Isajon Sulton alohida uslub yaratishga intilmaydi. Aksincha, qahramonlar ruhiyatiga, ijtimoiy holatiga, vaziyatiga qarab ularning har biriga individual yondashadi. Natijada, har bir obraz takrorlanmas badiiy qiyofaga ega bo‘ladi. Demakki, muallif uslubining eng asosiy xususiyati obrazlarga munosabat va yondashuvning takrorlanmasligi va individualligidadir.

Isajon Sulton yaratayotgan qahramonlarning har biri o‘z davri uchun ma’lum bir ijtimoiy ahamiyatga ega obrazlardir. Muallif shu jihatdan obrazlarning jamiyatdagi o‘rni va vazifasini konkret aniqlashtirib, belgilab oladi. Birorta obrazni asarga bir kelib keyin chiqib ketadigan obraz sifatida yaratmaydi. Har bir obrazning ma’lum badiiy vazifasi muallif tomonidan aniq va qat’iy tarzda belgilab qo‘yiladi. Ayni holatni kitobxon ham chuqur his etadi. Shu sabab ham qahramonlar o‘ta ijtimoiy faol va jonli qiyofaga ega bo‘ladilar. Shu holat ham uslubning konkretligini, aniqligini ta’minlashga keng xizmat qiladi. Qahramonlar ruhiy holati, ichki dunyosi va ko‘ngil kechinmalari hamisha muallif uchun bosh planda

turadi. Bu jihat esa uslubning hassosligi va ta'sirchanligini nihoyat darajada yuksalishiga yordam beradi. Muallif uslubiy individuallikka erishish uchun eng avvalo, obrazlarni xarakter darajasiga ko'tarilishiga, o'ziga xos jihatlariga, ichki kechinmalari va badiiy asar tiliga alohida e'tibor qaratadi. Ijod laboratoriyasida psixologizm, badiiy tasvir vositalarini o'z uslubiga moslagan holda qayta yaratishga intiladi. Natijada barqaror uslub shakllanadi. Muallif boshqa tarixiy romanlar ijod laboratoriyasini ham chuqur o'rgangani yaqqol seziladi. U uslubni ayni romanda tamomila yangi vositalar va yo'llar bilan yorqin tarzda ifoda etadi.

Badiiy psixologizm va uslub mushtarakligi. Psixologizm muallif uslubini ko'rsatib turuvchi eng muhim badiiy holatdir. Psixologizm asarning eng chuqur hissiy qismi. Bu jarayonni yoritish muallifdan maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Zero, "Badiiy psixologizm – badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami" [8;48].

To'laqonli inson obrazini yaratish esa mukammal uslub sohibi bo'lishni talab etadi. Shu sababli romanning bosh qahramoni Abu Rayhon Beruniy ruhiy olamini chuqur psixologizm vositasida ochib beradi. Bu o'rinda ham muallif psixologizm masalasini yoritishda o'z uslubidagi individuallikni namoyish etadi. Olimning asosiy hayot mazmuni bo'lmish ilm orqali qahramon holatidagi psixologik holatlar yoritiladi va o'ziga xos uslubiy individuallikni hosil qiladi. Beruniyning ruhiy holati, o'y-fikrlari odatda, shogirdi bilan bo'lgan suhbatlar, mulohazalar asnosida tasvirlanadi.

Beruniy qiyofasi aksariyat holatlarda chuqur mushohadalar ichida, ilmning mohiyatini anglash, hayot falsafasini mulohaza qilish bilan tasvirlanadi. Uning ruhiyati kecha va bugunning tashvishi bilangina emas, balki ertangi kun uchun ham kuyinadigan, iztirob chekadigan darajada nozik va hassos. Buni quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin:

– *Koshki, bir mo‘jizaviy usturlob bo‘lsa-yu, kelajakni o‘lchay olsaydim! Xalq orasidan yangi hikmat egalari yetishib chiqqanini, men yetolmagan kashflarga yo‘l ochganini va yer yuzi jannatday gullab-yashnaganini ko‘rsaydim.*

Bu istak olimlikning odamiylik bilan tutashgan nuqtasida yuzaga chiqadi, uning insoniyat va avlodlar haqidagi qayg‘usi va umidi muallifning psixologik holatini o‘zida yorqin tarzda aks ettiradi. Bu tuyg‘ular ichida eng asosiysi tabiiyki, boshqa olimlar kabi bu dunyoning mohiyatini anglashga urinishda aks etadi. U hayotda inson umrini baxshida etishi mumkin bo‘lgan nimadirni qidiradi. Bu jarayon shunaqangi aniq va jonli tasvirlanadiki, kitobxon ham qahramonga qo‘shilib umr mazmunini izlashga tushadi:

– *Yer yuzining men tuzgan xaritasiga qarasang, misol uchun Faxruddavla o‘z jonini fido qilgan hudud igna uchiday ekanini ko‘rasan. Vaholanki, Faxruddavlaning qiymati o‘sha mulklardan chandon ustun edi. Balki, bir mo‘minning badali butun dunyodan ustun bo‘lsa, ajabmas.*

Aynan shu fikrlar Beruniy qalbini eng tubigacha anglashga, ko‘rishga yordam beradi. Demakki, kimdirlar o‘z hayotini tamomila bir arzimagan narsa uchun fido qiladilar. Ammo hayotning qiymati ular o‘zlarini fido qilgan narsalardan anchayin baland. Demakki, bu hayotda nima uchun kurashishni anglash, nima uchun o‘zni qurbon qilishga tayyor bo‘lishni tushunish eng muhimidir. Hamma bu tanlovni o‘zi amalga oshiradi. Asarda syujet jarayoni bir mushohadadan yana bir boshqa mushohadalarga xuddi shu tariqa o‘tib boraveradi. Natijada psixologizm borgan sari kuchayib, qahramonni anglashga urinish, uni tushunish yanada oshib boraveradi. Bosh qahramonning psixologizm bilan yanada kitobxonga yaqinlashtirish ham Isajon Sulton uslubiga xos bo‘lgan eng o‘ziga xos jihatdir. Kitobxon uni har daqiqa qalbining eng nozik tuyg‘ularigacha ko‘rib boradi. Uning hayoti ilm, ma‘rifat ulashishdan, odamlar hayotini yaxshilashga, ularni ilmga hamroh qilishga urinishdan iborat. Shu sabab ham har bir o‘quvchi uni qo‘llab-quvvatlaydi, tushunadi, his qiladi va albatta, tuyg‘ularini anglaydi. Ammo Beruniy ruhiy holati butunlay boshqa bir ahvolda. U o‘z hayotini

mushohada qilar ekan, umrini tez o'tib ketganini, juda ko'plab maqsadlarini amalga oshirishga ulgurmaganini ta'kidlaydi, bundan afsus chekadi.

Aslida, bu ham olim, ham komil inson bilan yuzaga keladigan ruhiy davr, psixologik holatdir. Chunki umrini ilmga, ma'rifatga baxshida qilib yashagan insonning sarhisoblari hamisha o'zidan qoniqmaslik bilan tugaydi: *Afsus, umrim o'tdi, bajargan ishlarim meni xursand qilmadi*. Uning qalbida aks etgan bu psixologik holat o'z hayotini oz bo'lsada mushohada qiladigan kishilar qalbiga ko'chadi, ularni ham o'ylashga, fikr yuritishga undaydi. Ayni shu o'rinda muallifga tegishli uslubning xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni uning uslubiy quvvati kitobxon va bosh qahramon ruhiy holatini o'zaro chambarchas bog'laydi.

Isajon Sulton uslubiga xos bo'lgan yana bir yaqin jihatlardan biri, bosh qahramonning ruhiy holati, uning psixologik vaziyati boshqa bir qahramon tilidan yoritiladi. Bu holat badiiy ta'sirchanlikni yanada oshishiga sabab bo'ladi deyish mumkin:

– *Kim bilsin, Alloh taolo unga qay sirlarini ochdi ekan? Gohida tunlari, ayniqsa, Bomiyonda, yulduzlarga uzoq termulganlariga guvohman. Uvalanib, qumga aylana boshlagan tosh kukunini qo'liga olib, o'ychan boqqanida nimalarni o'yladi ekan? Yer yuzining yaratilish onlaridan boshlab Alloh taolo tanzimi ila bir xilda ro'y berib turgan dunyo hodisalari-yu yer yuzining beruniylari Tangri dargohlaridan olamga puflanib, Iso kabi paydo bo'lgan va bir kuni kelib yana mangulik olamlariga jo'nab ketadigan musofirlarning qilmishlarini afsus va nadomat bilan esladimikan?*

Uning ruhiy holati boshqa qahramon tilidan ochib berilar ekan, Abu Fazl asar mobaynida Beruniyning xususiyatlarini, ruhiy holati va ruhiy evrilishlarini o'zida aks ettirgan qahramon sifatida gavdalanadi. Shu bilan bir qatorda aksariyat hollarda Abu Fazl muallif tuyg'ularini, roman ichida muallif sifatida bayon etolmagan mulohazalarini, ijodkor ruhiy holatini o'zida aks ettiradi, o'zi bilan birga olib yuradi. Zero, uslub ijodkor shaxsi, xarakteri, tuyg'ulari bilan organik aloqada bo'lib, ular ta'siri orqali o'ziga xosligini namoyon qila boradi. Demak, uslubni o'rganishda yozuvchining muhim sotsial-psixologik xususiyatlari, axloqiy-

ma'naviy qarashlari, jamiyat estetik talablariga munosabatini uyushtirgan va gavdalantirgan, hayotni ko'rish, o'rganish, badiiy o'zlashtirish va ifodalashini ta'min etuvchi shaxsiyatning roli va o'rni ayrichadir" [2;36].

Shu jihatdan ham, Abu Fazl muallifning axloqiy-ma'naviy qarashlarini o'zida aks ettirishi, psixologik xususiyatlarini namoyish qilishiga ko'ra muhim obraz sanaladi. Uning tilidan Beruniy qiyofasini tasvirlanishi ta'sirchanlikni yanada oshiradi, Beruniyning psixologik holatini chuqur ochib beradi. Olimning ilm yo'lida bedor o'tkazgan tunlari, hayotiy mushohadalari yordamchi obraz tilidan tasvirlangani holda bosh obraz psixologizmining tasvirlanishi ham yozuvchi uslubiga xos bo'lgan individuallikdir. "Demak, uslub – yozuvchining voqelik va insonni idrok qilish, ularning qalbidagi haqiqatni kashf yetishi va uni so'z vositasida obrazli ifodalay olishi – bu vazifalarni individual (o'ziga xos) tarzda yaratish san'atidir" [9; 236].

Isajon Sulton uslubiga ayni jihatlar xos va mos bo'lgani holda u insonni idrok qilishga urinadi. O'zi yaratayotgan obrazning tuyg'ulari, o'y-fikrlari bilan qaysidir ma'noda hisoblashadi, uni tirik organizmga aylantirgan holda asardagi obrazni harakatga keltiradi, uning ko'ngil kechinmalarini birinchi o'ringa olib chiqadi. Ayni shu yo'l orqali obraz va uning butun hayotini qamrab olishga intiladi. Zero, "Tasvirga qamrab olingan hayotiy borliq ko'lamining kengligi, murakkab insoniy taqdir, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz tovlanishlar muayyan voqea-hodisalar fonida idrok etilishi bilan ajralib turadigan epik asarlarni tahlil qilish ham o'ziga xos yondashuvni taqozo qiladi. Epik asarlarda qahramonlar kechinmasini tasvirlash, obrazlar yoki hikoyachi kayfiyati ifodasini berishdan ko'ra, shu tuyg'ularning paydo bo'lish jarayoni, ularning hayotiy-ruhiy ildizlari qaerda ekanini ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Epik asarlarni badiiy tahlil etish ham ko'lamdor va ko'p bosqichli kechimdir. Epik asarlarning eng asosiy belgisi: voqeabandlik, tasvirda tafsilotlar mavjudligi va obrazlar tizimiga egalikdir. Qaysi janrda bo'lishiga qaramay, epik turga mansub asarlarda muayyan miqdorda qahramonlar bo'ladi, ular ozdir-ko'pdir voqealar qo'ynida tasvirlanadi va ularning tabiatiga xos xususiyatlar hodisalar tasviri asnosida

namoyon bo‘la boradi” [3; 296]. Ayni shu jihatdan ham “Abu Rayhon Beruniy” romanida badiiy psixologizm muallif uslubini ko‘rsatib beruvchi eng muhim omillardan biridir.

Uslubning muallif so‘z tanlash mahoratida aks etishi. Ijodkor so‘z bilan surat yaratuvchi rassomdir. U so‘zlarni o‘z o‘rnida, kerakli holatda tanlab, hayot suratini yaratadi. Ayni jarayon esa uning uslubini ham o‘zida aks ettirishga xizmat qiladi. Shu sababli “Diksiya (so‘z tanlash): mualliflar ma’lum bir ohang yoki atmosferani yaratish uchun so‘zlarni tanlashda ataylab tanlov qiladilar. Amaldagi diksiya rasmiydan norasmiygacha, texnikgacha, she’riygacha bo‘lishi mumkin va u adabiyotning umumiy uslubiga sezilarli hissa qo‘shadi. Sintaksis (gap tuzilishi): sintaksis gapdagi so‘z va iboralarning joylashishini bildiradi. Mualliflar o‘z yozuvlarida tezlik, ritm va urg‘uga ta’sir qilish uchun oddiy yoki murakkab jumlar kabi turli xil jumla tuzilmalaridan foydalanishlari mumkin. Jumla uzunligi va tuzilishi hikoyaning umumiy oqimi va uslubiga yordam beradi” [2; 98].

Isajon Sultonning so‘z qo‘llash mahorati asar uslubini o‘zida aks ettiruvchi eng muhim qirralardan biri bo‘lib, alohida originallikka ega. U murakkab va uzun jumladan qochgani holda, tarixiy koloritni ham qahramonlar nutqiga singdirib yuborishni unutmaydi. Isajon Sulton tarixiy so‘zlarga romanga tarixiy ruh baxsh etishni asosiy jihat deb bilmaydi. Uning o‘rniga so‘zlarni imkon qadar kitobxonga yaqin davr ruhiga moslagan holda, arxaizmlardan foydalanishni uslubining asosiy jihatiga aylantiradi. “Arxaizm grekcha so‘z bo‘lib, qadim, qadimgi degan ma’nolarni bildiradi. Ular hozirgi umumxalq tilida ishlatilmaydigan va eskirib qolgan so‘z hamda iboralardir. Qilich, dubulg‘a, sovut, sipar, qalqon, nayza, kamon, hoqon, podsho, amir, xon, bek, ulus kabi qator so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan arxaik so‘zlar sanaladi. Ammo badiiy matnlarda qahramon tilini tipiklashtirish, tasvirlanayotgan voqea ro‘y bergan joy va tarixiy voqelikka mos ifodalar ishlatish talab etilganda adiblar arxaik so‘z va iboralarga murojaat etadilar” [1; 11].

Muallif arxaizmlarni hudud, aholi din va dunyoqarashga tayangan holda tanlaydi, ularni izohlaydi, o'quvchiga tushuntiradi. Eng muhim jihati esa unut bo'lib borayotgan arxaik so'zlarni kitobxonning yodiga solish orqali ulaning umrini uzayishiga katta ko'mak beradi. Uning so'z tanlashdagi saviyasi, salohiyati hatto roman ichidagi hikoyatlar mazmunida ham aks etadi. "Abu Rayhonning ibodatdagi siymosi" deb nomlangan hikoyatda Beruniy tilidan muallif so'zdan so'zning farqi mavjudligini, so'z qo'llashda nihoyatda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni ta'kidlaydi. Hindlarning sanamlari haqida so'z yuritilganda, Abu Fazl ularga nisbatan "siymo" so'zini qo'llaydi. Beruniy esa bu so'zni bu o'rinda qo'llab bo'lmasligini unga uqtiradi:

– *Ey Abu Fazl! Sajdasiz siymo bo'larmidi? Siymo sajdadagina mavjud bo'la oladi.*

Beruniy tilidan aytilgan ana shu fikrdayoq yozuvchining so'zni tanlab ishlatishi, uning har bir so'z zamiridagi ma'noni chuqur his etishi ko'zga tashlanadi. So'zni nozik qilgan ijodkorda odatda, fikrning takrori ham kuzatilmaydi. Har bir fikr yangi bir g'oyani, mazmunni o'zida aks ettiradi. Isajon Sulton uslubidagi so'z qo'llash bilan bog'liq mahorat uning asarda tasvirlanayotgan har bir masalani chuqur o'rganib, ayni sohaga oid terminlarni mukammal tarzda qo'llay olishida, ularni tushunib, tushuntirib, izohlab berishida ham kuzatiladi. Jumladan, u Beruniy kashfiyotlariga doir terminlarni, Ibn Sino bilan bog'liq o'rinlarda tibbiyotga doir atamalarni, shoirlar obrazlari kelganda shoirona ifodalarni o'z o'rnida mukammal bir holatda qo'llaydi. Ayni jihat yozuvchining so'z qo'llash va uni o'z o'rnida o'rinli ishlatishi uchun ilmiy manbalar bilan ham chuqur tanishib chiqqanini ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, demak mukammal va individual uslub egasi bo'lish uchun iqtidor va iste'dod bilan birga chuqur bilim, o'zi yozayotgan mavzuni chuqur o'rganish ham nihoyatda muhim omillardan biri sanaladi. Ijodkorning uslubiga xos bo'lgan so'zlarni mahorat bilan qo'llash sarlavhalar va ularning nozik badiiyatida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. "Zarofat oqshomi", "Tafakkur ufqlari" kabi badiiy topilmali sarlavhalar, "Xorazmshoh sovchilari" kabi noodatiy yonasuvli nomlar

muallif uslubidagi o'ziga xoslikni yaqqol ochib beradi. Bu kabi uslub eng avvalo, kitobxonga o'ziga xos inja tuyg'uni baxsh etadi, uni to'ldiradi. Zero, "San'atkorning teran fikr, inja tuyg'u, oliy maslagi kitobxon tomonidan qayta his qilinmas ekan, anglash, idrok etish maromiga etmagan bo'ladi. Matn tirik, jonli, so'zlar seljilva bo'lmasa, ular kitobxonni rom etmaydilar, yangi ma'no qatlamlarini ifodalamaydi. Inson go'zallik, nafosat shaydosi ekan, uni targ'ib etgan badiiyat namunasidan ruhiy ozuqa oladi. Kitobxon asarni o'qib zavqlanadi, voqea, hodisa rivojini qunt bilan kuzatadi, qahramon bilan taqdir so'qmoqlarida sinovdan o'tadi. Badiiy yetuk asargina asrlar osha yashab, kitobxon auditoriyasini kengaytirib boradi" [5; 96].

Isajon Sulton ham estetik ta'sirni so'z orqali amalga oshiradi, qahramonlar tilidan aytilgan so'zlarni ham ularning ijtimoiy holati, ruhiyati, salohiyati va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tanlaydi. U so'z orqali donolikni namoyish etishga emas, so'z orqali tushuntirishga urinadi. Aslida "Ijodkor so'z qo'llash mahorati uslubidagi betakrorlikni, asosan ohangdorlig-u jo'shqinlikni namoyon qilibgina qolmay, balki shaxs, davr, zamon manzarasini aks ettirishga qaratiladi. Badiiy adabiyot so'z qudratini to'liq namoyon etadi. Insoniyat tafakkuri, qalbiga bevosita so'z, qalam orqali ta'sir qilinadi. Badiiy to'yintirilgan so'z mohiyati asarni o'qish, o'zlashtirish asnosida anglab boriladi" [6; 228]. Romanda ayni jihatlar to'la-to'kis namoyon bo'lgani holda, muallif uslubidagi novatorlik ko'zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
2. Носиров Ў. Образларда услуб жиолари. – Тошкент: Фан, 1991.
3. No'monova S. Epik asarlarni tahlil qilishning metodik va me'yoriy asoslari. <https://sg.com/d/sIHH6m8KIAun50sYG>

4. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Том 1.: Гештальт и действительность. Шпенглер О. пер. с нем., вступ.ст. и примеч. К.А.Свасьяна. – Москва: Мысль, 1993. – 663 с.
5. Rasulova U. Ijodkor uslubi va badiiy mahorat // Adabiyotshunoslik – O‘zbekiston: til va madaniyat, 2023. – № 1. – B. 96.
6. Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (Поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). – Тошкент, 2020.
7. Turdiyeva Y. Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida badiiy uslub individualligi. – filillogiya fanlari bo‘uicha PhD falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025.
8. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.– Тошкент: Академнашр, 2013. –
9. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. Дарслик. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 236 б.